

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025  
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**A.M.Rasulov**

Axborot va axborot makonining ijtimoiy-siyosiy kontseptual asoslari ..... 235

**A.A.Salmonov**

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-siyosiy omillari ..... 240

**B.X.Tolipov**

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati  
asosida rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari ..... 245

**F.A.Mirzayeva**

Zamonaviy tariqatchilikdagi ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimida  
"Maktubot" asarining ahamiyati ..... 249

**I.M.Arzimatova**

Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari ..... 254

**I.A.Asatulloev**

Siyosiy ta'sirni amalga oshirish vositalari va mexanizmlari ..... 260

**O.M.Karimov**

Majburiy mehnatga qarshi kurashda xorij tajribasi: muammo va yechimlar ..... 266

**Q.Sulaymonov**

Siyosiy madaniyatning milliy-madaniy negizlari va o'ziga xos xususiyatlari ..... 269

**A.A.So'fiev**

Tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini oshirishning ijtimoiy zarurati ..... 273

**M.R.Sodiqova**

O'zbekiston ipakchilik sanoatida xalqaro hamkorlik aloqalari va uning iqtisodiy  
ahamiyati (2000-2021-yillar) ..... 278

**S.A.Soxibov**

Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston va global kontekstda oqibatlar tahlili ..... 282

**Q.A.Pulatov**

Sotsial transformatsiya sifatida tizimli jarayon: falsafiy va tarmoqlararo tahlil ..... 286

**D.E.Normatova**

Qadimgi Xitoyda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar ..... 290

**O.M.O'sarkulov**

O'zbekistondagi koreys diasporasi milliy identikligining asosiy ko'rinishlari ..... 294

**G.I.Hashimova**

Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy,  
siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida ..... 299

**I.A.Rakhimov**

Problems with performance indicators (KPI) set by mahalla chairmen  
when evaluating the performance of the "Mahalla seven" ..... 304

**S.P.Tojiboyev**

Davlat boshqaruvida korrupsiogen xatti-harakatlarning psixosotsial ildizlari ..... 308

**TARIX****F.M.Rahmonberdiyev**

XX asr 20 – 50-yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining B.Ahmedov hayotida aks etishi ..... 313

**F.M.Rahmonberdiyev**

Tarixshunoslikda akademik Bo'riboy Ahmedov hayoti va ilmiy faoliyatini  
davrlashtirish masalalari: yangi talqinlar ..... 321

**E.A.Botirov**

Bir olimning izlari: L.M. Landa shaxsiy fondi sahifalariga nigo ..... 328

**O.A.Radjabov**

Tojikiston temiryo'l tashkiloti va uning faoliyati tarixi ..... 332

**S.B.Mamataliyeva**

Turkistonning islomgacha bo'lgan davrdagi shishalari tarixi ..... 336

**S.I.Yoqubjonov**

O'zbekiston hunarmandchiligi: rivojlanishi va xalqaro maydonda bugungi o'rni ..... 342

**D.A.Qosimov**

Turkiston o'lkasida Farg'ona viloyati pochta-telegraf tizimining tarixiy



UO'K: 930.25:94(575.1)

## BIR OLIMNING IZLARI: L.M. LANDA SHAXSIY FONDI SAHIFALARIGA NIGOH

## СЛЕДЫ ОДНОГО УЧЁНОГО: ВЗГЛЯД НА СТРАНИЦЫ ЛИЧНОГО ФОНДА Л.М. ЛАНДЫ

## TRACES OF A SCHOLAR: AN ANALYTICAL OVERVIEW OF L.M. LANDA'S PERSONAL ARCHIVE

Botirov Elbek Alisherovich 

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti (v.b)

**Annatotsiya**

*Maqolada O'zbekiston tarixshunosligi va arxivshunosligi rivojida muhim o'rin tutgan olim Leonid Mixaylovich Landa (1921–1971)ning hayoti, faoliyati va ilmiy merosi tahlil qilinadi. Tadqiqot ishi O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan L.M.Landaning shaxsiy fondi (R-2823) hujjatlari asosida amalga oshirilgan. Unda olimning sovet davri tarixiga oid tadqiqotlari, tarixiy-biografik ishlari hamda manbashunoslik, arxivshunoslik va tarixshunoslikka qo'shgan hissassi ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, L.M.Landa tahriri ostida yaratilgan "O'zbekiston SSR Markaziy davlat arxivi: Oktabr to'ntarishi sotsialistik qurilish fondlari bo'limi bo'yicha yo'lko'rsatkich" haqida ma'lumotlar beriladi.*

**Аннотация**

*В статье анализируются жизнь, деятельность и научное наследие учёного, сыгравшего значительную роль в развитии узбекской историографии и архивоведения, — Леонида Михайловича Ланды (1921–1971). Исследование основано на материалах личного фонда учёного (Р-2823), хранящегося в Национальном архиве Узбекистана. Рассматриваются его труды, посвящённые истории советского периода, историко-биографическим исследованиям, а также его вклад в источниковедение, архивоведение и историографию. Особое внимание уделено справочным материалам и путеводителю «Центральный государственный архив Узбекской ССР: Отдел фондов Октябрьской революции и социалистического строительства», подготовленному под редакцией Л.М. Ланды.*

**Abstract**

*The article analyzes the life, professional activity, and scholarly legacy of Leonid Mikhailovich Landa (1921–1971), a researcher who played a significant role in the development of Uzbek historiography and archival studies. The study is based on materials from the scholar's personal collection (R-2823), preserved in the National Archive of Uzbekistan. It examines Landa's works devoted to the history of the Soviet period, historical and biographical research, as well as his contribution to source studies, archival science, and historiography. Special attention is given to the reference materials and the guide "Central State Archive of the Uzbek SSR: Department of the Funds of the October Revolution and Socialist Construction", prepared under the editorship of L.M. Landa.*

**Kalit so'zlar:** shaxsiy fondlar, Landa, tarixiy-biografik tadqiqotlar, shaxsiy hujjatlar, tarixshunoslik, arxiv sohasi, ilmiy fond, arxiv yo'lko'rsatkichi.

**Ключевые слова:** личные фонды, Ланда, историко-биографические исследования, личные документы, историография, архивное дело, научный фонд, архивный путеводитель.

**Key words:** personal collections, Landa, historical and biographical research, personal documents, historiography, archival studies, scientific collection, archival guide.

**KIRISH**

Shaxsiy fondlarning yaratilishi, to'planishi va saqlanishi bugungi kunda nihoyatda dolzarb masalalardan biridir. Mazkur fondlar insoniyatning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini asrab qolishning eng muhim manbai hisoblanadi. Ular orqali olimlar, san'atkorlar, ixtirochilar va ma'rifatparvarlarning hayoti hamda faoliyati haqidagi autentik ma'lumotlar saqlanadi. Hujjatlarning tizimli to'planishi tarixiy jarayonlarni shaxslar taqdiri orqali tahlil qilish, ilm-fan rivojining uzviyligini anglash imkonini beradi. Hozirgi kunda shaxsiy fondlarni ilmiy ishlov berish milliy xotirani saqlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Shaxsiy fond hujjatlarini arxivlarda to'plash, saqlash va ilmiy muomalaga chiqarish ishlarini rivojlantirish – milliy tarixni inson omili orqali tiklashning dolzarb yo'nalishi sanaladi. Shu boisdan bugungi kunda sovet davri tarixchilarining ilmiy merosni qayta tahlil qilish, ilmiy faoliyatini obyektiv baholash zaruriyati kuchaygan bir davrda L.M. Landa shaxsiyati va ilmiy faoliyatini o'rganish ilmiy hamda tarixiy jihatdan dolzarb masaladir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shaxsiy fond hujjatlarining jamiyat hayotida ilmiy ahamiyatini ko'rsatib berish masalasi XX asr boshlarida dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Xususan, arxiv nazariyasining klassik olimlaridan biri Hilary Jenkinson shaxsiy fondlarni arxivshunoslikning muhim tarmog'i sifatida ko'rib, "arxivchi hujjatning qiymatini o'zi belgilamasin u hujjatni qanday qabul qilgan bo'lsa, shunday saqlasin" degan prinsipni ilgari suradi [1]. Fransuz olimi Jacques Derrida esa arxivni "xotira va hokimiyat maydoni" sifatida talqin qiladi [2]. U shaxsiy arxivlarni insonning o'zini tarixda qayta yaratuvchi vosita deb ko'rsatadi. Postmodern arxivshunoslik maktabi asoschisi sifatida tanilgan kanadalik Terry Cook esa, shaxsiy fondlarni "sotsial xotira" doirasida o'rganadi. U "arxiv – hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi muloqot maydoni" degan konsepsiyani ilgari suradi [3]. Arxiv sohasida etakchi nazariyotchi, germaniyalik Angelika Manne-Haritz "shaxsiy fond hujjatlarining "sub'yektiv tarixiy haqiqat"ni qayta qurishdagi roli tushuntirib bergan [4].

Shu bilan bir qatorda Markaziy Osiyolik olim va tadqiqotchilar ham shaxsiy fond hujjatlari orqali jamiyat tarixini sub'yektiv o'rganishda foydalaniyotganligi tahsinga sazovordir. So'nggi yillarda shaxsiy kelib chiqishga ega arxiv fondlarini o'rganilish masalasida V.L.Gentshke, V.G. Iofe, O.U. Xasanova, T.I.Doroshenko, G. Xo'jamova, D.Mirsaidova, M.Tabarov, L. Fionova va O. Ladanovalar izlanish olib borganlar [5]. Xususan, V.G.Iofe O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan olimlar, ixtirochilar va ma'rifatparvarlarning fondlarini manbashunoslik va biografik kontekstda o'rgangan. Xususan, O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan shaxsiy fond hujjatlari: olimlar, arxitektorlar, arxeologlar, tarixchilar, tibbiyot va texnika vakillari fondlarini ilmiy merosni o'rganish uchun asosiy manba deb hisoblaydi. O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan shaxsiy fondlarning ilmiy o'rganilganlik darajasi hali past, bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni ko'ytirish kerak deb xulosalaydi [6].

D. Mirsaidova va M. Tabarovalar o'z maqolalarida Tojikiston Respublikasining mustaqillik davrida shaxsiy fondlarni shakllantirish tajribasini tahlil qilib, ularning milliy hujjatli merosni boyitishdagi o'rnini asoslaydi. Ularning tahliliga ko'ra, Tojikiston Markaziy davlat arxivida mavjud 438 ta shaxsiy fond 6 ta: fuqarolar urushi va bosmachilikka qarshi kurash ishtirokchilari, o'qituvchilar, sotsialistik mehnat qahramonlari, ikkinchi jahon urushi faxriylari va ilm-fan va madaniyat xodimlarning hujjatlari tasniflanib kolleksiyaga ajratadilar [7].

L. Fionova va O. Ladanovalar o'z tadqiqot ishlarida shaxsiy arxiv hujjatlarini autentik (haqiqiy va ishonchli) tarixiy manba sifatida nazariy jihatdan tahlil qilishgan. Ya'ni hujjatlarning "autentiklik" belgisini aniqlash orqali ularni sub'yektiv, ammo ishonchli tarixiy aks ettirish vositasi sifatida talqin etadi. Ular Penza universiteti tajribasida talabalar va olimlar tomonidan shaxsiy fondlar bilan ishlash jarayonini amaliy ko'rsatib berishgan [8].

Mazkur maqolaning metodologik poydevorini tarixshunoslik, manbashunoslik va arxivshunoslik fanlarining nazariy tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida xotira tadqiqotlari va mikrotarixni rivojlantirish, tarixiylik, tizimlilik, obyektivlik va qiyosiy-tahliliy prinsiplarga asoslanildi. L.M. Landa faoliyatini sub'yektiv yoritish asosida o'z davrining ijtimoiy-siyosiy sharoitlari, ilmiy muhit va sovet tarixshunosligi rivoji bilan uzviy bog'liq holda tahlil etish imkonini berdi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Ta'kidlash lozimki, arxivchi kelib chiqishiga ko'ra hujjatlarni tanlaydi, tavsiflaydi, tartiblaydi hamda nomlaydi. Qaysi hujjatlar saqlanishi yoki yo'qotilishini xal qiladi va u bilvosita tarix yaratuvchisiga aylanadi. O'z faoliyati davomida saqlanayotgan hujjatlarni ilmiy muomalaga chiqaradi. Shunday arxivchi va olimlardan biri bu Leonid Mixaylovich Landa. 1921-yil 18-yanvarda Kiyev viloyatining Bila Serkva shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan L.M.Landa 1938-yilda Rakitnoye qishlog'idagi o'rta maktabni tamomlab, Kiyev davlat universitetining filologiya fakultetiga o'qishga kiradi. 1941-yilda nemislarni Sobiq Ittifoq hududiga bostirib kirishi munosabati bilan oliy ta'limni Toshkentga, O'rta Osiyo davlat universitetining tarix-filologiya fakultetida davom ettiradi.

1943-yil iyun oyida o'qishni tamomlagan L.M.Landa O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining Arxiv bo'limiga ishga yuboriladi. U yerda dastlab katta ilmiy xodim lavozimida ish boshlab, 1944-1952-yillarda O'zbekiston SSR Oktyabr inqilobi va sotsialistik qurilish markaziy davlat arxivi direktori, 1952-1957-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix muzeyida kichik ilmiy xodim, 1957-1959-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutida ilmiy kotib, 1959-1971-yillarda mazkur institutning kata ilmiy xodimi sifatida faoliyat yuritgan.

L.M. Landa o'zining ilmiy faoliyati davomida Oktabr to'ntarishining Turkistonda ta'siri, ishchi va kasaba uyushmalari harakati, RSFSRning 1918-1920-yillardagi fuqarolar urushi va chet el

intervensiyasi tarixi shuningdek, arxivi materiallari va ularning tarix fanidagi ahamiyati, sovet tarixshunosligining rivojlanishi masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy izlanishlarni olib bordi. Shu bilan birga, tarixiy-biografik ocherklar, qo'llanmalar, yo'lko'rsatkichlar muallifidir.

1971-yilda vafot etgach, olimning shaxsiy hujjatlari 1994-yil noyabr oyida uning kichik qizi Viktoriya Leonidovna Landa tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (2019-yildan O'zbekiston Milliy arxivi maqomi beriladi) saqloviga topshiriladi. 1995-yilda olimning hujjatlari arxivning "Saqlov ishlarini tashkil etish bo'limi" boshlig'i T.I. Karagodina rahbarligida ilmiy-texnik jihatdan qayta ishlanib tizimlashtiriladi. Ilmiy-texnik ishlov natijasida 1869–1980-yillarni o'z ichiga olgan 2600 ta hujjat asosida 320 ta yig'majild shakllantirilib, hujjatlar xronologik tartib asosida joylashtirilgan (faqatgina I.1 va II bo'lim hujjatlari nominativ belgilar asosida joylashtirilgan). Yig'majildlar tarkibida (5, 157, 223 va 289) ayrim hujjatlarning jismoniy holati qoniqarsiz, matni xiralashgan (o'chib borayotgan) bo'lib, restavratsiyaga muhtoj bo'lishiga qaramasdan tarixiy ahamiyati yuqori.

1995-yilda olib borilgan hujjatlarni ilmiy-texnik jihatdan qayta ishlanishi natijasida 7 ta bo'limga:

ilmiy faoliyatiga oid materiallar (Monografiya, dissertatsiya, arxiv va bibliografik yo'lko'rsatkichlar, ocherklar, maqolalar, ma'ruzalar, radioeshittirish matnlari, fikr-mulozalar) [9];

xizmat (mehnat) faoliyatiga oid materiallar (shaxsiy va ish rejalari, yillik ish dasturlari, faoliyat hisobotlari, ish daftarlari, ma'ruza konspektlari, mehnat shartnomasi asosida aniqlangan arxiv materiallarining mashinkada yozilgan nusxalari, konferensiyalarga taklifnomalar, hisobotlar va institut faoliyatiga oid ma'lumotlar) [10];

biografik materiallar (talabalik va komsomol biletlari, ma'lumotnomalar, buyruq va bayonnomalardan ko'chirmalar, fotosuratlar hamda avtobiografik ma'lumotlar) [11];

yozishmalar (L.M. Landaning tahririyatga, Kuznetsov, Shebaldin, M.V. Keldyshev va A.X. Kasirovlarga yozgan xatlarining qoralama nusxalari hamda unga yozilgan xatlar) [12];

tadqiqot mavzulari uchun to'plangan materiallar (Oktabr to'ntarishi davri, Turkistondagi fuqarolar urushi, O'zbekiston SSRda qishloq xo'jaligini jamoalashtirish, teatr tarixi bilan bog'liq arxiv hujjatlarining mashinkada yozilgan va fotonusxalari, respublika hayotidagi muhim sanalarga bag'ishlangan gazeta va jurnallardan qirqmalar, V. Kolchinning Osipov qo'zg'oloni va komsomol haqidagi xotiralari, N.A. Bagdasaryan, A.P. Petyushev, A. Nurov va boshqalarning nomzodlik dissertatsiyalari avtoreferatlari, monografiyalar, hujjatlar to'plamidan olingan boblar, qoralama fikrlar, A.K. Afanasyev, S.L. Zenkovskiy, B.V. Lunin va boshqalarning ocherklari) [13];

taqrizlar (dissertatsiya, avtoreferat, monografiya, ocherk va boshqa tadqiqot ishlariga yozilgan taqrizlar) [14];

yaqin qarindoshlariga oid materiallar (oilasiga taalluqli ma'lumotlar)ga [15] ajratilgan.

Yuqorida keltirilgan tizimlashtirish ishlari natijasida olimning hayot yo'li, ilmiy faoliyati hamda ilm-fan, madaniyatga qo'shgan hissasi naqadar ahamiyatli ekanligi aniq bo'ldi. Xususan, L.M. Landa muharrirligi asosida yaratilgan "O'zbekiston SSR Markaziy davlat arxivi: Oktabr to'ntarishi sotsialistik qurilish fondlari bo'limi bo'yicha yo'lko'rsatkich" loyiha [16] natijasida hozirgi kunlarga qadar O'zbekiston Milliy arxivida sovet davri fondlarini o'rganishda tadqiqotchilarga mayoq vazifasini o'tamoqda. Mazkur yo'lko'rsatkichni yaratish ishlari arxiv materiallariga bo'lgan chuqur ilmiy qiziqish sababli ilmiy-ma'lumotnoma xarakteridagi mukammal qo'llanma tuzish zaruratini yuzaga keltirgan edi. Bunday qo'llanma ilmiy-tadqiqot muassasalari, xo'jalik tashkilotlari va keng tadqiqotchilar doirasi uchun arxivning boy hujjat manbalari bilan tanishishni osonlashtirishi kerak edi. Natijada L.M. Landa rahbarligida mazkur yo'lko'rsatkichni tayyorlashda O'zbekiston SSR Markaziy davlat arxivi ilmiy xodimlari O.D. Zavadskiy, D.A. Ioffe, S.A. Kovaleva, V.M. Pokrovskiy, B.T. Xasanovlar hamda R.S. Erzina va N.M. Mazina kabi ilmiy tadqiqotchilar jalb qilingan.

Yo'lko'rsatkichda 1527 ta fond jamlangan bo'lib, ulardagi hujjat birliklari soni 503 060 tani tashkil etadi. Barcha hujjatlar tartibga keltirilgan sakkiz bo'limdan iborat bo'lib, fondlar asosan tarmoqlar asosida guruhlash orqali tizimlashtirilgan. Har bir bo'limda fondlarning tavsiflari davlat idoralarining rasmiy nomlanishiga binoan xronologik tartibda keltirilgan bo'lib, arxiv fondlarining ilmiy ahamiyatini inobatga olgan holda ularning individual tavsiflari keltirilgan. Aytish lozimki, yo'lko'rsatkichga ilmiy-tadqiqot jihatidan katta ahamiyatga ega bo'lmagan fondlar kiritilmagan. Masalan, mahalliy qo'mitalar, ixtiyoriy jamiyatlarning bo'linmalari, omborlar, ustaxonalar, bazalar va shu kabilar hujjatlari unda aks ettirilmagan.

## XULOSA

## TARIX

Shunday qilib, taniqli tarixchi va arxivshunos olim Leonid Mixaylovich Landaning shaxsiy fondi o'z mazmuni jihatidan nihoyatda boy bo'lib, unda olimning hayoti, ilmiy faoliyati va merosi bilan bir qatorda O'zbekistonda fan hamda tarixshunoslik taraqqiyotiga oid qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Mazkur fond orqali L.M. Landa faoliyatining o'ziga xos jihatlarini, uning arxivshunoslik va tarixshunoslik sohalariga qo'shgan shaxsiy hissasini shuningdek, ilmiy izlanishlar doirasini, balki uning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini, ilmiy tashabbuskorlik va metodologik yondashuvlarini chuqur yoritib berish mumkin. Mazkur fondni ilmiy muomalaga kiritish nafaqat bir olim faoliyatining tarixiy izini qayta tiklaydi, balki o'zbek arxivshunosligi taraqqiyotining manbashunoslik poydevorini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jenkinson, Hilary. "A Manual of Archive Administration." New and revised edition, London (1937): 35-36. <https://dn720707.ca.archive.org/0/items/manualofarchivea00iljenk/manualofarchivea00iljenk.pdf>.
2. Derrida, Jacques, and Eric Prenowitz. "Archive Fever: A Freudian Impression." *Diacritics* 25, no. 2 (1995): 9-63. <https://doi.org/10.2307/465144>.
3. Cook, Terry. "What is Past is Prologue: A History of Archival Ideas Since 1898, and the Future Paradigm Shift." *Archivaria* 43 (1997): 30. <https://archivaria.ca/index.php/archivaria/article/view/12175/13184>.
4. Menne-Haritz, Angelika. "Access - the reformulation of an archival paradigm". *Archival Science* 1. Kluwer Academic Publishers, Netherlands, 2001: 57-82. <https://ru.scribd.com/document/284800066/Menne-Haritz-Angelika-2001-Access-the-Reformulation-of-an-Archival-Paradigm>
5. Гентишке В.Л., Дорошенко Т.И. О личных фондах Центрального государственного архива Республики Узбекистан // Вестник архивиста. 2005. № 5-6. С. 82-96; O'sha muallif: Обзор личного фонда выдающегося археологавостоковеда В.Л. Вяткина: [по документам ЦГА Республики Узбекистан] // Вестник архивиста. 2009. № 3 (107). С. 184-197; Иофе В.Г. Документы личного фонда Б.П. Грабовского по истории телевидения // Вестник архивиста. 2006. № 4-5 (94-95). С. 71-96; Иофе В.Г., Уфимцев Г.П. Личные фонды архивов и архивы музеев Узбекистана – ценные источники по истории русской диаспоры в Средней Азии // Вестник архивиста. 2012. № 3. С. 230-237; Иофе В.Г., Хасанова О.У., Ильина А.О. Р.Р. Шредер – выдающийся ученый-селекционер: (О личном фонде Р.Р. Шредера в ЦГА РУз) // Ежегодник МАИИКРН. 2015. № 1. С. 317-327; Fionova L.R., Ladanova O.Y. *Archival fonds of personal origin as an authentic information source*. Vestnik VNIIDAD = Herald of VNIIDAD. 2024; 2:76-87. (In Russian).
6. Валерий Г. Иофе (2024). Личные фонды деятелей науки, изобретателей и деятелей просвещения XX в. в Национальном архиве Узбекистана. История и архивы, (1), 152-166.
7. Мирсаидова Д., Табарова М. (2015). История создания личных архивных фондов ЦГА Республики Таджикистан. Историк (Муаррих), (3), 52-58.
8. Fionova L.R., Ladanova O.Y. *Archival fonds of personal origin as an authentic information source*. Vestnik VNIIDAD = Herald of VNIIDAD. 2024; 2:76-87. (In Russian).
9. O'zMA, R-2823-fond, 1-ro'yhat, 1-214-yig'majildlar tahlili.
10. O'zMA, R-2823-fond, 1-ro'yhat, 214-223-yig'majildlar tahlili.
11. O'zMA, R-2823-fond, 1-ro'yhat, 224-225-yig'majildlar tahlili.
12. O'zMA, R-2823-fond, 1-ro'yhat, 226-249-yig'majildlar tahlili.
13. O'zMA, R-2823-fond, 1-ro'yhat, 250-313-yig'majildlar tahlili.
14. O'zMA, R-2823-fond, 1-ro'yhat, 314-317-yig'majildlar tahlili.
15. O'zMA, R-2823-fond, 1-ro'yhat, 318-320-yig'majildlar tahlili.
16. Центральный государственный архив Узбекской ССР путеводитель по Отделу фондов Октябрьской революции и социалистического строительства. Под редакцией кандидата исторических наук Л.М. Ланда. – Тошкент, 1960. – 332 с.